



ABDULLA AVLONIY: MILLIY UYG'ONISH DAVRI YETAKCHISI SIFATIDA

Qo'shoqova Munisa Asomiddin qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Email: munisahushokova@gmail.com

Tel: +998919694707

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19344550>

ARTICLE INFO

Received: 21st March 2026

Accepted: 25th March 2026

Published: 30th March 2026

KEYWORDS

Turkiy Guliston yoxud axloq, Ikkinchi muallim, Maktab Gulistoni, O'qituvchi

ABSTRACT

Abdulla Avloniy o'zbek xalqining milliy uyg'onish davri juda muhim o'rin tutgan jadid ma'rifatparvarlaridan biridir. U pedagog, yozuvchi, dramaturg va jamoat arbobi sifatida xalqni ilm-ma'rifatga chorlagan. Avloniy xalqni jaholatdan chiqarish, zamonaviy ta'limni rivojlantirish va milliy ongni uyg'otish g'oyalarini faol targ'ib qilgan. XX asr boshlarida Turkistonda milliy uyg'onish harakati kuchaygan paytda Avloniy yangi usul maktablarini tashkil etib, o'quvchilar uchun darsliklar yozdi.

KIRISH

Abdulla Avloniy o'zbek xalqining milliy uyg'onish davrida katta rol o'ynagan mashhur ma'rifatparvar, pedagog, yozuvchi va jamoat arbobidir. U XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston hududida yashab, xalqni ilm-ma'rifatga, taraqqiyotga va zamonaviy bilimlarni o'rganishga da'vat qilgan. Avloniy jadidchilik harakatining faol namoyandalaridan biri bo'lib, xalqning savodini oshirish va yosh avlodni tarbiyalashni o'zining asosiy vazifasi deb bilgan, Avloniy yangi usul maktablarini tashkil etib, o'quvchilarga zamonaviy bilim berishga harakat qildi. U maktablar uchun darsliklar yozib, ta'lim tizimini rivojlantirishga katta hissa qo'shdi. Uning mashhur asari Turkiy Guliston yoxud Axloq bo'lib, unda yoshlarni axloqli, bilimli va vatanparvar qilib tarbiyalash haqida muhim fikrlar bayon qilingan. Bu asarda insoniy fazilatlar, odob-axloq qoidalari, yaxshi va yomon xulq haqida tushunarli misollar orqali ma'lumot berilgan. Abdulla Avloniy faqat pedagog sifatida emas, balki adib va dramaturg sifatida ham faoliyat yuritgan. U teatr orqali ham xalqni ma'rifatga chaqirishga harakat qilgan. Uning asarlarida xalqning ozodligi, milliy ongni uyg'otish, yoshlarni ilm-fan va tarbiyaga chaqirish g'oyalari aks etadi. Avloniy o'z faoliyati bilan Turkistonda ma'rifatparvarlik g'oyalarining keng tarqalishiga katta hissa qo'shgan. Uning fikricha, tarbiya inson hayotida juda muhim o'rin tutadi. Avloniy yosh avlodni tarbiyalashda ota-ona, maktab va jamiyat birgalikda harakat qilishi kerakligini ta'kidlagan. Shuningdek, u insonning jismoniy va fikriy rivojlanishiga ham katta ahamiyat bergan. Sog'lom badan, to'g'ri fikr va yaxshi axloq inson kamolotining asosiy omillari ekanini alohida ta'kidlagan

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mazkur tadqiqot mavzusi yuzasidan mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Jadidlar faoliyati, ularning ta'lim tizimiga qo'shgan hissasi va bu jarayonlarda Abdulla Avloniy tutgan o'rni masalasi ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Xususan, K.R. Abdullayev, T.S. Achilov, B.Q. Baratov, N.E. Tog'ayev, Sh.Sh. Tursunov, A.M. Uzoqov, X.X. Xudoyberdiyeva hamda F.Z. Yusupovlar o'z tadqiqotlarida mazkur masalaning turli pedagogik jihatlarini yoritib berganlar. MDH mamlakatlari olimlari — M.A. Abramov, G.X. Axmetshina, T.V. Bespalova, V.V. Gladkix, V.S. Gorbunov, A.S. Magomedova, S.V. Metshernyakova, A.A. Mirzayev, V.A. Sereda va V.M. Xaustov esa vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishning

pedagogik-psixologik asoslari hamda metodikasini ilmiy jihatdan asoslab berganlar. Shuningdek, xorijiy tadqiqotchilar — Hearn J., Kanota J., Phillips Bernard S., Takeuchi H., Moscovici S. va Rogers C.R. tomonidan ushbu muammoning nazariy va metodik jihatlari keng o'rganilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqola Abdulla Avloniyning ma'naviy-axloqiy qarashlarini ilmiy jihatdan o'rganish hamda ularni tadqiq qilishga yo'naltirildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning tarixiylik va izchillik tamoyillariga amal qilindi. Ish davomida qiyosiy tahlil metodi asosiy usul sifatida qo'llanib, mutafakkirlarning axloqiy qarashlaridagi o'xshash va farqli jihatlar aniqlab berildi. Shu bilan birga, mantiqiy tahlil yordamida ularning fikrlar tizimi izchil o'rganildi hamda muhim xulosalar chiqarildi. Dialektik yondashuv orqali esa qarashlarning shakllanishi va rivojlanish jarayonlari ochib berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Abdulla Avloniy 1878-yilning 12-iyulida Toshkentda Mergancha mahallasida dunyoga keldi. Otasi Miravlon aka mayda hunarmandchilik — to'quvchilik bilan shug'ullangan. Piyonbozorda (hozirgi Navoiy teatri maydoni), Yarmarka bozorida (hozirgi San'at muzeyi atrofi) bo'zva chit bilan savdo qilardi. "Onamning oti Fotimadir" deb yozadi adib o'z tarjimai holidi. Abdulla 7 yoshdan O'qchidagi eski maktabda Akramxon domlada savod chiqaradi. 1890-yilda shu mahalladagi madrasaga o'tdi. So'ng Shayxontohurdagi Abdumalikboy madrasasida Mulla Umar Oxunda tahsil ko'rdi. Ammo tirikchilikning og'irlashuvi o'qishga imkon bermaydi. "1891-yildan boshlab, faqat qish kunlarida o'qib, boshqa fasllarda mardikor ishladim", — deb yozadi Avloniy. Ko'p o'tmay bu ham barham topdi. U butunlay ishga sho'ng'ib ketdi. O'zi aytganidek, "binokor"likni o'rgandi, "g'isht quyish, suvoqchilik, pechkachilik, duradgorlik ishlari" bilan mashg'ul bo'ldi. 1900-yilda Avloniy toshkentlik savdogar bir xonadonning Salomatxon degan qiziga uylanadi. Shu yili otasi vafot etadi. 1904-yilda Avloniy Mirobodda usuli jadid maktabi ochadi[1].

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkiston (Markaziy Osiyo) o'lkasida pedagogik fikrlarning rivojlanishida, xalq maorifi ishlarini yuksaltirishda ilg'or ziyolilarning xizmatlari kattadir. Bunda jadid adabiyotining yirik vakili shoir, dramaturg, muallim Abdulla Avloniy (1878-1934)ning xizmatlari ko'p. U maktablar ochib, shaxsan o'zi muallimlik qilish bilan bir ga maktablarni darsliklar bilan ta'minlashishiga katta hissa qo'shdi. Uning qalamiga mansub "Turkiy guliston yoxud axloq", "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Maktab gulistoni" asarlari bir necha bor nashr etildi.[6] Bular ichida "Turkiy guliston yoxud axloq" asari o'zbek klassik pedagogikasining ajoyib namunasi hisoblanadi. Abdulla Avloniy mazkur asarni fors klassik shoiri Shayx Muslihiddin Sa'diy (1184-1210)ning "Guliston" asaridan ta'sirlanib, unga taqlid qilib yozganligi haqida shunday deydi: «Men bu asarni nochiuzonimni birinchi maktablarimizning yuqori sinflarida ta'lim bermak ila barobarulug' adabiyot muhiblari, axloq havaskorlarining anzori oliylarına taqdim qildim». Alhamdulillah val minna ikkinchi tab'i'ada muvaffaq bo'ldim, chunki shevamizda (o'zbek tilida demoqchi) yozilmish mukammal "Axloq" kitobining shunday asarga tushmava muhtoj ekanligi o'zim mualliflar jumlasidan ekanligimdan menga ham ochiq ma'lum bo'ldi. Shuning uchun ko'p vaqtlar tajriba so'ngidan adibi muhtaram Shayx Sa'diy usulida yozmoqni, garchi og'ir ish bo'lsa ham, o'zinga muqaddas bir vazifa ado qilaroq buyumushda davom qildim. Demak, aytish mumkinki, "Turkiy guliston yoxud axloq" Sa'diyning "Guliston" asari usulida o'zbek tilida yozilgan axloq kitobidir[2]. Abdulla Avloniyning pedagogikaga oid asarlari ichida uning 1913 yilda yozgan va 1917 yilda ikkinchi bor nashr qilingan "Turkiy guliston yoxud axloq" asari XX asr boshlarida pedagogik fikrlar taraqqiyotining muhim sahifalaridan biri hisoblanadi. Bu asar mazmun jihatdan muallifning boshqa ilmiy va pedagogik asarlaridan farq qiladi. "Turkiy guliston yoxud axloq" asari axloqiy va ta'limiy asardir. Bu asarda Abdulla Avloniy o'z ijtimoiy va axloqiy-ta'limiy qarashlarini bayon etadi. "Turkiy guliston yoxud axloq", Kaykovusning "Qobusnoma", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Nosir Xusravning "Saodatnoma", Sa'diyning "Guliston"

va "Bo'ston", Jomiyning "Bahoriston", Navoiyning "Mahbub ul-qulub", Ahmad Donishning "Farzandlar nasihati" kabi asarlar qatorida turadi. XX asr boshlarida bunday asarni o'zbek tilida birinchi bo'lib Abdulla Avloniy yaratdi. U pedagog va ma'rifatparvar sifatida tanilgan. Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" kitobini yaratishda o'zbek va tojik adabiyoti klassiklarining yuqorida nomlari zikr qilingan asarlaridan ijodiy foydalangan. "Turkiy guliston yoxud axloq" kitobi katta-kichik 64 bobdan iborat bo'lib, har bir bob ta'lim-tarbiya masalalariga bag'ishlanadi va ikki qismga ajratiladi.[3]

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, har tomonlama taraqqiy topib borayotgan jamiyatimiz ma'naviyatini yanada rivojlantirishda millatimiz tarixini o'zida badiiy aks ettirgan tarixiy, badiiy hamda ilmiy asarlarni alohida o'rganishga e'tibor qaratila hech boshlandi. Shu o'rinda yurtboshimizning "Biz uchun qachon kun tartibidan tushmaydigan yana bir o'ta muhim masala borki, unga alohida to'xtalib o'tishni zarur, deb bilaman. U ham bo'lsa, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimiz, farzandlarimiz tarbiyasi bilan bog'liqdir. Buyuk bobimiz Abdulla Avloniy aytganidek, bu masala biz uchun haqiqatan yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir va o'z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan, ta'bir joiz bo'lsa, masalalarning masalasidir"[4] deya bugungi kun yoshlarini ta'lim-tarbiyasida ahamiyatli bo'lish joiz bo'lgan ko'plab tomonlar mavjudligi, tarixni anglash, adabiyotga mehr berish, kitobxonlar safini yanada kengaytirish, jamiyatda o'qituvchi-pedagog maqomini yanada yuksaltirish borasida fikrlar bildirganlar.

Tarixdan ma'lumki, zaminimiz allomalar yurti, bunday zamin, albatta, o'zining madaniy yodgorliklari, bebaho asarlariga boydir. Mazkur madaniy meros yosh avlodni barkamol qilib voyaga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sh.M.Mirziyoyev "Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish-xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir" - "Sharq yulduzi" jurnali

Xulosa: Abdulla Avloniy o'zbek ma'rifatparvarlik harakatining yirik vakillaridan biri bo'lib, u adabiyot, pedagogika va ijtimoiy hayot rivojiga katta hissa qo'shgan. U xalqni ilm-ma'rifatli qilish, yosh avlodni zamonaviy bilimlar asosida tarbiyalash g'oyasini ilgari surgan. Avloniy yangi usul maktablarini tashkil etishda faol qatnashib, o'quvchilar uchun darslik va tarbiyaviy asarlar yaratgan.[5] Uning mashhur asarlarida insonparvarlik, axloqiy poklik, vatanparvarlik va ma'naviy yetuklik g'oyalari asosiy o'rin tutadi. Abdulla Avloniy ta'lim-tarbiyani jamiyat taraqqiyotining eng muhim omili deb bilgan. U yoshlarni bilimli, odobli, mehnatsevar va vatanga sadoqatli qilib tarbiyalash zarurligini ta'kidlagan. Uning pedagogik qarashlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab qolgan. Avloniyning adabiy va ilmiy merosi o'zbek xalqining ma'naviy boyligi hisoblanadi hamda hozirgi zamon ta'lim tizimida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yhati:

1. Abdulla Avloniy, Jadidlar. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi 2022 yil 158-bet
2. Abdulla Avloniy, Turkiston guliston yoxud axloq. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi 2004 yil 97-bet
3. Abdulla Avloniy, Turkiston guliston yoxud axloq. Toshkent: O'qituvchi 1992 yil 160-bet
4. Sh.M.Mirziyoyev "Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir" "Sharq yulduzi" jurnali
5. R.Barakayev. O'zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi. T. Adabiyot nashriyoti, 1998 y, 134 b
6. Qosimov B, Dolimov U. Sharafli hayot. T., G'.G'ulom nashriyoti 1987 120 b